

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/27.02.2020.T.73.02 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**CHORSHANBIYEV UMAR RAVSHAN O'G'LI**

**DISPERS SISTEMALARNING NAPORLI QUVURLARDAGI  
GIDROTRANSPORTINI POLIMER KOMPOZITSİYALAR BILAN  
MODIFIKATSİYALASH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi**

**02.00.07 - Kompozitsion, lok-bo'yoq va rezina materiallari kimyosi va texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSİYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Chorshanbiyev Umar Ravshan o'g'li**

Dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransportini polimer kompozitsiyalar bilan modifikatsiyalash asosida takomillashtirish..... 3

**Чоршанбиев Умар Равшан ўғли**

Усовершенствование гидротранспорта дисперсных систем в напорных трубопроводах на основе модификации полимерными композициями..... 21

**Chorshanbiev Umar Ravshan ugli**

Improvement of hydrotransport of dispersed systems in pressurized pipes based on modification of polymer compositions ..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 42

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/27.02.2020.T.73.02 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**CHORSHANBIYEV UMAR RAVSHAN O'G'LI**

**DISPERS SISTEMALARNING NAPORLI QUVURLARDAGI  
GIDROTRANSPORTINI POLIMER KOMPOZITSIYALAR BILAN  
MODIFIKATSIYALASH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi  
02.00.07 - Kompozitsion, lok-bo'yoq va rezina materiallari kimyosi va texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4536 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tstu.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Ibadullayev Axmadjon Sobirovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Babayev Asqar Ro'zibadalovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Jonqobilov Ulug'murod Umbarovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Adilov Ravshanbek Erkinovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy DSc.15/27.02.2020.T.73.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil 15 avgust soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Adilxodjayev ko'chasi, 1-uy. Tel.: +998-71-299-00-01; faks: +998-71-293-57-54, e-mail: rektorat@tstu.uz, www.tstu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (176 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent shahri, Temiryo'Ichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: +998-71-299-05-66; faks: +998-71-293-57-54.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «29» 07 kuni tarqatildi.  
(2024 yil «29» 07 №5 reyestr bayonnomasi).



**A.V.Umarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash raisi,  
t.f.d., professor

**E.U.Teshabayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
t.f.d., professor

**N.Q.Tursunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash huzuridagi bir martalik  
ilmiy seminar raisi,  
t.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda togʻ-kon sanoatida rudalarni boyitishda hosil boʻluvchi qoldiqlarni dispers sistemali gidroaralashma holatida tashishda gidrotransport tizimlari muhim vosita boʻlib, gidrotransport jarayonida quvurlar va nasoslar qismlarining yedirilishi, yuqori energiya sarflashi asosiy muammolar hisoblanadi. Shu sababli boyitish jarayonining uzluksizligini taʼminlash, gidrotransport jarayonida quvurlar va nasoslarning gidravlik samaradorligini oshirish dolzarb masaladir. Shularni inobatga olib texnologik jarayonni saqlagan holda oqim qovushqoqligini kamaytiruvchi, sistemadagi fazalar fizik-kimyoreologik xossalarini yaxshilovchi, dispers sistema qarshiligini va quvurlar yedirilishini kamaytiruvchi usullar asosida naporli quvurlar gidrotransportini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda qurilish va togʻ-kon sanoatida dispers sistemalarning past va yuqori konsentratsiyasida gidroaralashmalar oqimining reologik xossalarini yaxshilash, gidravlik qarshiligini, quvurlar va nasoslar qismlarini yedirilishini, energiya sarfini kamaytirish, quvurlar oʻtkazuvchanligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yoʻnalishda naporli quvurlar gidrotransportini, uzluksiz uzatuvchi jarayonlarni taʼminlovchi oqimni, gidravlik elementlar va qurilmalarning konstruktiv parametrlarini hisoblash usullarini takomillashtirish, qovushqoqlik va dagʻallik hususiyatiga ega geterogen dispers sistemalar oqimiga polimer kompozitsiyalar va sirt faol moddalar qoʻshish bilan naporli quvurlar gidrotransportini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan energiya tejankor yangi usullar va texnologiyalar ishlab chiqishga eʼtibor qaratilmoqda.

Respublikamizda togʻ-kon sanoatida hususan rudalarni boyitish va qayta ishlash fabrikalarida boyitish qoldiqlari saqlash maydoniga naporli gidrotransport tizimi yordamida tashilmoqda. Gidrotransport tizimi metall quvurlar va nasos qurilmalaridan tashkil topgan, yuqori ekspluatatsion va energiya harajatlari talab qiladi. Tashish samaradorligini oshirish, gidrotransport tizimlarining ekspluatatsion va energiya xarajatlarini kamaytirishda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish...sanoat tarmoqlarida yoʻqotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish... havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish»<sup>1</sup> boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli, bugungi kunda dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransportining samaradorligini oshiruvchi, atrof-muhitga taʼsirini kamaytiruvchi jihozlarning yedirilishga va destruksiyaga bardoshligini oshiruvchi ikkilamchi organik birikmalar asosida kompozitsiyalar yaratish va ular bilan dispers sistemalarni modifikatsiyalash texnologiyalarini ishlab chiqish boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- son «2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi

---

<sup>1</sup>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son «2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni

to'g'risida»gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4124-son «Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 6 apreldagi PF-4891-son «Tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmi va tarkibini tanqidiy tahlil qilish, import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish to'g'risida»gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransportini takomillashtirish bo'yicha N.A Silin, M.A. Dementev, V.N. Pokrovskiy, A.Ye. Smoldirev, A.G. Djvarsheyshvili, R. Dyuran, D.F. Richardson, S.A. Shuka, V. Pajonki, Ye. Sobot, P. Slatter, V.A. Zvereva, Yu.G. Abrosimov, Xoang Zan Bin, A.X. Mirzajanzada, N.M. Lebedev, K. Sellin, I.L. Povx, Na Tiong Lin, M.I. Valiyev, J.W. Hoyt, M.P. Tulin, I.I. Yeroshkina, F.I. Frankl, G.I. Barenblatt, V.M. Makkaveyev, M.M. Gareyev, I.I. Levi, X. Rauz, Yu.A. Buyevich, A.N. Krayko, S. Sou, G. Uoilis, A. Fortye, D.F. Fayzullayev, X.A. Raxmatulin, K. Sh. Latipov, S.I. Kril, A.A. Shakirov, A.M. Arifjanov, I. Xujayev, S. Xudaykulov, I.E. Maxmudov, X. Ilxomov, A.I. Umarov, S.S. Negmatov, A.G. Djalilov, T.A. Atakuziyev, A.S. Ibadullayev, X.E. Yunusov, E.U. Teshabayeva, A.R. Babayev va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ular tomonidan qurilishda va tog'-kon sanoatida dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransporti, ularning fizik-kimyoviy xossalari, konsentratsiyasi, mashina va apparatlari, unumni oshirish va dispers sistemalarda zarrachalar muvozanatini saqlash usullari joriy etilgan.

Shu bilan birga hozirgi kunda tog'-kon sanoatida va qurilishda dispers sistemalarning tarkibiy qismini inobatga olib naporli quvurlardagi gidrotransportini takomillashtirish, xususan naporli quvurlarda dispers sistemalarning konsentratsiyasini, qovushqoqligini, dag'alligini, elementar tarkibini, fizik-kimyoviy-reologik xossalarini, cho'kuvchanligini va atrof-muhitga ta'sirini inobatga olib dispers sistemalarni modifikatsiyalovchi polimer kompozitsiyalar yaratish va dispers sistemalarni modifikatsiyalash usullarini ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent temir yo'l muhandislari instituti) hamda Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining BV-Atex-2018-509-son «Oqova suv tizimlarining me'yoriy bazasini takomillashtirishning nazariy tamoyillari» (2018-2019 yy.) va A-12-41 «Energiya va resursni tejashni

ta'minlovchi mahalliy va ikkilamchi xomashyo resurslari asosida issiqlikka va korroziyaga chidamli bo'lgan kompozitsion materiallar olish tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish» (2012-2014 yy) amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransportini kompozitsion organik birikmalar bilan modifikatsiyalash asosida takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

dispers sistemalarning konsentratsiyasini, kinematik va reologik xossalarini naporli quvurlardagi harakatiga ta'sirini tadqiq etish;

dispers sistemalarning gidrotransportida oqim samaradorligini oshiruvchi polimerlar va sirt faol moddalarni tizimli tahlil qilish;

dispers sistemalarning fizik-kimyoviy-reologik xususiyatlarini inobatga olib, mahalliy va ikkilamchi xomashyolar asosidagi organik birikmalar asosida modifikatorlar yaratish va ularning fizik-kimyoviy, adsorbsion xossalarini o'rganish;

tog'-kon sanoati boyitish qoldiqlari dispers sistemalarning granulometrik va kimyoviy tarkibini o'rganish hamda gidrotransport tizimlarining yedirilishiga ta'sirini aniqlash;

yaratilgan polimer kompozitsion modifikatorlarning naporli quvurlardagi gidrotransport jarayonida dispers sistemali gidroaralashma qovushqoqligiga, oqim harakatiga, reologik hususiyatlariga ta'sirini aniqlash;

modifikatsiyalangan dispers sistemalarning quvurlarni yedirilishiga ta'sirini aniqlash;

modifikatsiyalangan dispers sistemalar oqimining nasos parametrlariga va ishlash vaqtiga ta'sirini aniqlash;

mahalliy xomashyolar asosida dispers sistemalarni modifikatsiyalash uchun organik birikmalar asosidagi kompozitsion modifikatorlar olish va ularni ishlatish texnologiyalarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** Olmaliq Kon-Metallurgiya kombinati boyitish qoldiqlarini uzatuvchi naporli quvurlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** dispers sistemalarning naporli quvurdagi gidrotransporti va organik birikmalar asosidagi kompozitsiyalar bilan modifikatsiyalash jarayonlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida dispers sistemalarning strukturaviy tahlili Gemini-500 (FE-SEM) skanirlovchi emission mikroskop va rentgen usuli yordamida, quvurlarni yeyilishga bardoshlilik «Micron tribo» tribometrda, polimer kompozitsiyalarni va dispers sistemalarni tahlil qilishda viskozometriya, IQ-spektroskopik, matematik hamda gidravlikada umum qabul qilingan usullar va standartlashtirilgan fizik-mexanik, kinematik, dinamik va eksperimentlarni rejalashtirish hamda matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

mahalliy xomashyolar asosida dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransport jarayonida gidroaralashma qovushqoqligini, oqim harakatini, reologik xossalarini yaxshilovchi va gidrotransport tizimlari-ning yedirilishini kamaytiruvchi

organik birikmalar asosidagi modifika-torlar olish ingrediylari miqdori va texnologik jarayoni yaratilgan;

yaratilgan kompozitsion modifikatorlarning fizik-kimyoviy, texnologik va reologik xossalariga ingrediylarning miqdori va strukturasi ta'siri aniqlangan;

modifikatsiyalangan dispers sistemali gidroaralashmalar gidravlik parametrlarini hisoblash usuli zarrachalar harakati oshishi hisobiga oqim harakati rejimining o'zgarishini inobatga olib ishlab chiqilgan;

dispers sistemali gidroaralashmani modifikatsiyalash natijasida uning qovushqoqligi 9,84%, gidrotransport bosimi 5,7%, cho'kuvchanlik 22,6% kamayishi, harakatlanish tezligi va unumdorligi 40% oshishi, jihozlar yedirilishi 30%, energiya sarfi 31,86% kamayishi ko'rsatilgan;

mahalliy ikkilamchi xomashyolardan organik birikmalar asosidagi modifikatorlar olish, dispers sistemali gidroaralashmalarni modifika-siyalash va uzatish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

dispers sistemali gidroaralashmalar gidrotransportida qovushqoqlikni, bosim yo'qotilishini, jihozlar yedirilishini va korroziyasini kamaytirish sistemani reologik holatini va unumdorligini oshirish uchun mahalliy ikkilamchi xomashyolar asosida kompozitsion modifikatorlar ishlab chiqilgan;

yaratilgan kompozitsion modifikator bilan dispers sistemali gidroaralashmalarni modifikatsiyalash texnologik jarayon unumi va ishlash muddatini 30% ga oshirishi ko'rsatilgan;

kompozitsion modifikatorlarni olish va qo'llash texnologik jarayoni ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi mahalliy ikkilamchi xomashyolar asosida olingan kompozitsion modifikatorning tog'-kon sanoati boyitish qoldig'i dispers sistemaning adsorbsion, fizik-kimyoviy, reologik xossalariga va gidrotransport tizimlarining yemirilishiga, korroziyasiga ta'sirini laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida eksperimental tadqiqotlar, sinovdan o'tgan usullar bilan tahlil qilishda zamonaviy tadqiqot usullarining qo'llanilishi orqali ta'minlanganligi hamda davlat standart talablari asosida o'lchash vositalarida olingan natijalarning qiyosiy tahlili va ularning o'zaro mosligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dispers sistemalarni naporli quvurlardagi gidrotransport jarayonida gidroaralashma qovushqoqligini va gidrotransport tizimlarining yedirilishini kamaytiruvchi, oqim harakatini, reologik xossalarini yaxshilovchi mahalliy xomashyolar asosidagi kompozitsion modifikatorlar olish va dispers sistemali gidroaralashmalarni modifikatsiyalash texnologiyasi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tog'-kon sanoati rudalarni boyitish chiqindisi, dispers sistemali gidroaralashmalarni kompozitsion modifikator bilan modifikatsiyalash gidrotransport jarayonida bosim yo'qotilishi va energiya sarfini kamaytirish, oqim samaradorligini va gidrotransport tizimlaridan foydalanish muddatini oshirishga xizmat qiladi.



**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransportini polimer kompozitsiyalar bilan modifikatsiyalash asosida takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

mahalliy xomashyolar asosida organik birikmali kompozitsion modifikator olish tarkibi va texnologiyasi Olmaliq KMK 2-mis boyitish fabrikasida amaliyotga joriy etilgan (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJning 2024 yil 29 martdagi 03-24/59-00086-son ma'lumotnomasi). Natijada naporli quvurlarning dispers sistemalar ta'sirida yedirilishi kamaytirilib foydalanish muddatini 30% gacha oshirish imkonini bergan;

mahalliy xomashyolar asosida yaratilgan organik birikmali kompozitsion modifikatorlar bilan naporli quvurlarda dispers sistemalarning modifikatsiyalash texnologiyasi Olmaliq KMK 2-mis boyitish fabrikasida amaliyotga joriy etilgan (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJning 2024 yil 29 martdagi 03-24/59-00086-son ma'lumotnomasi). Natijada naporli quvurlarda sistemaning qovushqoqligi 9,84%, gidrotransport bosimi 5,7%, cho'kuvchanligi 22,6% ga kamayishi, harakatlanish tezligi va unumdorligi 40% oshishi, jihozlar yedirilishi 30%, energiya sarfi 31,86% kamaytirish imkonini bergan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishining natijalari 10 ta respublika ilmiy-texnik va 4 ta xalqaro konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 35 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, O'zbekiston Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etilishi tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, shundan 5 ta respublika, 8 ta chet el (Scopus 4 ta) jurnallarida, Xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda 22 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tog'-kon sanoatida dispers sistemalarning gidrotransporti, nazariyasi va ishlatilishi”** deb nomlangan birinchi bobida dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransportiga doir nazariy va amaliy tadqiqotlarning analitik tahlili keltirilgan. Dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransporti masalasida oqimning qovushqoqligi, yuqori konsentratsiya, gidravlik qarshilik, oqim harakati, napor yo'qolishlari, ishqalanish kuchlanishi, gidrotransport

tizimlarining yedirilishi, cho‘kuvchanligi va oqimning kritik tezligi asosiy parametrlar hisoblanadi, natijada bugungi kunda ishlab chiqarishda, xususan tog‘-kon sanoatida foydalanilayotgan gidrotransport tizimlarining yuqori energiya sarfi va past samaradorlikda ishlashining asosiy omillari o‘rganilgan. Bu jarayonning mohiyatini ifodalash dispers sistemalarning nyuton qonuniyatiga bo‘ysunmaydigan suyuqliklar sifatidagi hususiyatlari, granulametrik tarkibi, xajmiy konsentratsiyasi, qovushqoqligi, kritik tezlik hamda qattiq va suyuq faza zichliklari bilan belgilanishi aniqlangan.

Dispers sistemalarning gidrodinamik va energetik hususiyatlarini o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi, oqimning tashuvchanlik qobiliyatini oshiruvchi polimerlar, sirt faol moddalar ularning destruksiyasi va modifikatsiyalash jarayoni tahlil qilingan. Olib borilgan analitik tahlillar asosida dissertatsiya ishining rejasi tuzilgan.

Dissertatsiyaning **“Dissertatsiya ishining obyekti va qovushqoq gidroaralashmalar gidrotransportini o‘rganish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransportini takomillashtirishda tavsiya etilgan tenglamalar, dispers sistemalarni modifikatsiyalash uchun tanlab olingan mahalliy ikkilamchi xomashyolar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Olmaliq kon metallurgiya kombinati mis boyitish fabrikasi qoldiqlarini tashishda foydalanilgan gidrotransport tizimlari va dispers gidroaralashmalarni modifikatsiyalashda qo‘llaniluvchi organik birikmalar asosidagi kompozitsiya olish uchun tanlangan mahalliy va ikkilamchi homoshyolar – gossipol smolasi, Karboksimetilsellyuloza (KMS), tabiiy gazni qayta ishlash natijasida hosil bo‘ladigan ikkilamchi adsorbentlar (Alkanolamin chiqindilari) olingan.

Dispers sistemali gidroaralashmalarining qovushqoqligi, oqim harakati, kritik tezligi, zichligi, konsentratsiyasi va granulametrik tarkibini o‘rganishda gidrodinamikaning eksperimental va standartlashtirilgan zamonaviy usullari tanlanildi. Tadqiqot ob’yektidagi mis boyitish qoldig‘i dispers sistemaning kimyoviy tarkibini aniqlashda Rigaku Technologies (AQSH) kompaniyasining NEXCG analizatorida fundamental parametr usullari (Scatter FP) qo‘llanildi. Dispers sistemali gidroaralashma nyuton qonuniga bo‘ysinmaydigan suyuqlik bo‘lganligi sababli Bingam suyuqliklari deb nomlandi va ichki ishqalanish qonunini tavsiflagan Bingam modelidan foydalanildi.

Dissertatsiyaning **“Mineral dispers sistemalarning gidrotransport jarayonini yaxshilovchi organik modifikatorlar yaratish va xossalarini o‘rganish”** deb nomlangan uchinchi bobida dispers sistemalarning granulametrik, kimyoviy tarkibi, ularni modifikatsiyalash uchun mahalliy va ikkilamchi xomashyolar asosidagi polimer kompozitsiyalarini tayyorlashda kimyoviy va termofizik jarayonlar natijasida yuzaga keladigan muhim tarkibiy o‘zgarishlar, asosiy tarkibiy hususiyatlari, ishlab chiqish texnologiyalari, shuningdek, ularning mis boyitish sanoati chiqindilarining hususiyatlariga va gidrotransport jarayoniga ta’siri tavsiflangan.

Dispers sistemalarni modifikatsiyalash kompozitsiyasini yaratishda gossipol smolasini tanlashdan maqsad, u yuqori quvvat va yuqori bosimga bardosh beruvchi kuchli materialni talab qiladigan gidrotransport tizimlarida foydalanish uchun samarali hisoblanadi. Karboksimetilsellyuloza – dispers sistemalarning gidrotransport

jarayonidagi reologiyasini o'zgartiruvchi hususiyatga ega, qattiq zarrachalar cho'kishining oldini olish orqali oqimni barqarorlashtirishga yordam beradi, moylash vositasi sifatida zarrachalar va quvur devorlari orasidagi ishqalanishni kamaytiradi, tashiladigan materialning oqim xususiyatlarini yaxshilaydi, gidroaralashma ichida namlikni yaxshiroq ushlab turish hususiyati orqali gidrotransport uchun zarur bo'lgan suv miqdorini kamaytiradi va suvni tejash orqali samaradorlikni oshiradi, quvur tizimidagi tiqilib qolish xavfini kamaytiradi. Alkanolaminlar – tog'-kon sanoati homashyolarini qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan chiqindilar tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash uchun erituvchi yoki changni yutish vositasi sifatida va tashilayotgan chiqindi gidroaralashmalarning pH darajasini moslash uchun ishlatilishi mo'ljallandi (1-jadval).

Tanlab olingan polimer moddalarning keltirib o'tilgan hususiyatlarni o'zaro to'ldirish orqali kompozitsion modifikator tarkibi yaratildi. Kompozitsion modifikatorning tarkibini yaratishda tanlangan ikkilamchi xomashyolarni yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlari inobatga olinib, umumiy xossaga ega bo'lgan kompozitsiya olishga harakat qilindi. Bunda alkanolaminlarning ikkilamchi xomashyo sifatida suvdagi eritmasiga nisbatan olinib unda gossipol smolasi va KMS ning miqdorini o'zgartirilib 6 ta na'muna tayyorlandi (2-jadval).

**1-jadval**

**Tanlab olingan ingreiyentlarning xossalari**

Modifikator nomi	Formulasi	Tashqi ko'rinishi	Molekulyar massasi	Eruvchi muhit	GOST (TU)
Gossipol smolasi	$C_{30}H_{30}C_8$	to'q jigarrangdan qora rangacha	518,6	suv	OST 18-114
Karboksime - tilsellyuloza	$[C_6H_7O_2(OH)_{3-x}(OCH_2COOH)_x]_n$	Oq rangli kristalli kukun	$1,4 \cdot 10^5$	suv	TU 2162023 0236587595
Ikkilamchi Alkanolamin - CHMEA - CHDEA - CHMDEA	- $HOCH_2CH_2NH_2$ - $(HOCH_2CH_2)_2NH_2$ - $CH_3N(CH_2CH_2OH)_2$	Rangsiz yopishqoq suyuqlik	61,1 105,136 119,162	suv	TU 66-02-915-84

**2-jadval**

**Kompozitsion modifikator na'munalarining tarkibi**

Xomashyo nomi	Na'munadagi xomashyo miqdori, %					
	1	2	3	4	5	6
Gossipol smolasi	5	4	6	7	3	5
Karboksime tilsellyuloza	5	6	4	3	3	2
Ikkilamchi alkanolamin	90	90	90	90	94	93


Shuningdek, olingan na'munalarning ko'p fazali suyuqliklarga ta'sir qilish mexanizmini o'rganish uchun suvda eriydigan modifikatorlar tarkibi bilan tajribalar o'tkazildi. Tanlanilgan xomashyolarining fizik-kimyoviy xossalari inobatga olib 30 minut davomida  $40\text{ }^{\circ}\text{C}$  da tayyorlandi. Tayyorlab olingan kompozitsiyaning fizik-mexanik xossalari o'rganildi (3 – jadval).

**Kompozitsion modifikator na'munalarining fizik-mexanik xossalari**

Ko'rsatkichlar nomlanishi	Na'munadagi xomashyo miqdori,%					
	1	2	3	4	5	6
Qaynash harorati, °C	179	180	178	182	181	183
Muzlash harorati, °C	-11	-13	-10	-9	-7	-11
Dinamik qovushqoqlik, Pa*s	1,16	1,27	1,28	1,22	1,33	1,18
Kinematik qovushqoqlik 10 <sup>-6</sup> Pa*s	1,13	1,25	1,24	1,19	1,28	1,16

Tayyorlangan kompozitsiyaning dispers sistemalar reologiyasiga ta'sirini aniqlash uchun ularni dispers sistema tarkibidagi mineral zarrachalar holatiga ta'siri o'rganib chiqildi. Mis boyitish qoldiqlari – temir elementini o'z ichiga olgan mahsulot bo'lib, u murakkab mineralogik tarkibga ega. Undagi umumiy temir miqdorining massa ulushi 40,6 % ni tashkil etdi. Tadqiqot obyektimizda mis boyitish qoldig'ining kimyoviy tarkibi 25 ta elementdan iboratligi ma'lum bo'ldi, jadvalda asosiy elementlarni keltirib o'tdik. Bundan tashqari quyidagi elementlar ham mavjud: Cu – 0,527%, S – 0,801 %, Mg – 0,802 %, Zn – 1,45 %, Ca – 1,69 %, K – 2,15 %, Al – 4,56%, SI – 17,8 %, Cl – 0,122 %, Ti – 0,242 %, Cr – 0,0377 %, Mn – 0,204 %, As – 0,0126 %, Rb – 0,0226 %, Sr – 0,0131 %, Y – 0,0017 %, Zr – 0,214 %, Mo – 0,223 %, Ag – 0,0013 %, Sn – 0,0055 %, Sb – 0,0468 %, Ba – 0,123 %, Ir – 0,0145 %, Pb – 0,322 %.

Mis boyitish sanoati qoldig'i tarkibida temir – Fe, kremniy – Si, Alyuminiy – Al, Kaliy – Ka, Kalsiy – Ca, Ruh – Zn, Magniy – Mg, Oltingugurt – S va Mis – Cu elementlarining massa ulushi yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu elementlarning oqim jarayonida gidrotransport tizimlariga ta'sirini aniqladik. Boyitish qoldiqlari tarkibidagi elementlarning gidrotransport tizimlariga ta'sirini o'rganish va yedirilish miqdorini aniqlash orqali elementlarning ta'sir ko'rsatkichlarini taqqosladik (1-rasm).




1-Fe; 2-SI; 3-Al; 4-K; 5-Ca; 6- Pyx.

1-rasm. Gidroaralashma tarkibidagi elementlarning gidrotransport tizimlari yuzalarining yedirilishiga ta'siri

Mahalliy ikkilamchi xomashyolar asosida yaratilgan kompozitsion modifikatorni dispers sistemaning gidrotransport jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri qattiq dispers fazalar orasidagi ishqalanishda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rganish bo'lib, ular modifikatsiyalash sharoitida kompozitsiyalarning oqim harakatiga ta'sirini aniqlaydi. Shu munosabat bilan suyultirilgan polimer eritmalardan statistik adsorbsiya usulida kompozitsion modifikator (KM) molekularining turli dispers sistema zarrachalari bilan o'zaro ta'sirining xususiyatlari o'rganildi.


KM adsorbsiyasi dastlabki konsentratsiyalari 50 dan 90 g/t gacha bo'lgan konsentrlangan eritmalarda amalga oshirildi, muvozanatga erishish vaqti  $18 \pm 2$  °C haroratda 24 soatni tashkil etdi, qattiq faza 15 daqiqa davomida 3000 ayl/min tezlikda sentrifugalash orqali suyuq fazadan ajratildi, tabiiy sharoitda quritilganidan so'ng, 100 ml distillangan suvda desorbsiyaga uchradi (muvozanat vaqti - 24 soat). Boyitish qoldig'i yuzasida KM adsorbsion izotermi 2-rasmda ko'rsatilgan.



**2-rasm. Boyitish qoldig'i yuzasida kompozitsion modifikatorning adsorbsion izotermasi**

KM adsorbsion izotermasini tahlil qilish sirt qatlamida adsorbsiyasi uning keskin egilishiga olib keladigan yarim hujayralar hosil bo'lishini xulosa qilish imkonini beradi. Sorbsiya izotermalari tasnifiga ko'ra, mis qoldig'idagi KM izotermasi KMS moddasidagi molekulararo o'zaro ta'sirni tavsiflaydi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki yaratilgan KM bilan suvli dispers sistemalar modifikatsiya qilinganda ularni adsorbsiya qilish 30-40% ekanligini aniqladik. Demak dispers sistemalar zarrachalari bir biri bilan yopishadi ma'lum miqdorda sharoitiga qarab kimyoviy reaksiyaga ham kirishadi. Buni jarayonda issiqlik ajratish bilan asoslash mumkin. Shu bilan birga KM ni dispers sistema hajmiga ta'sirini aniqladik. Olingan natijalarga ko'ra dispers sistema hajmi KM adsorbsiya bo'lish hisobiga 25-30% oshadi, ya'ni shishadi (3-rasm).

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki dispers sistemalarni polimerlar bilan modifikatsiyalash ularning fizik-kimyoviy va adsorbsion xossalriga ta'sir qiladi. Bu esa ularni gidrotransport qilishda ijobiy natijalar berib, ishlab-chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.



**3-rasm. Modifikator ta'sirida dispers sistema hajmining oshishi**

Dissertasiyaning «**Kompozitsion modifikatorlar bilan dispers sistemalarni modifikatsiyalash asosida oqim hususiyatlarini o'zgartirish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida yaratilgan kompozitsion modifikator bilan dispers sistemalarni modifikatsiyalashning gidroaralashma oqimining qovushqoqligiga, harakatiga, reologik hususiyatlariga, gidravlik qarshiliklariga, quvurlar tizimi yedirilishiga, nasos parametrlariga va ekologiyaga ta'siri o'rganilgan va tizimli tahlil qilingan.


Yaratilgan kompozitsion modifikator bilan boyitish qoldig'i – dispers sistemalar modifikatsiyalash tajribalari o'tkazildi. O'tkazilgan tajribalar jarayonida 25% konsentratsiyada gidroaralashma qovushqoqligining modifikatsiyalashdan avvalgi va keyingi qiymatlari taqqoslandi, bunda modifikatsiyalashdan avval qovushqoqlik miqdori va cho'kuvchanligi yuqori holatda ekanligi aniqlandi, bu holatda oqim jarayonida gidroaralashmaning qattiq dispers sistemalari quvur tubiga cho'kib qolishi kuzatildi, bu esa oqimning harakat rejimiga va tezligiga ta'sir o'tkazib quvurning pastki sohasini yedirilishiga, quvurdan o'tayotgan oqim sarfini kamayishiga, gidravlik qarshilikning ortishiga olib kelishi aniqlandi, modifikator qo'shilgach qovushqoqlik qiymati o'zgarishini 50 g/t dan 100 g/t gacha nisbatlarda 6 ta tajriba o'tkazish asosida aniqlandi (4-jadval).

**4-jadval**

**Modifikatorning gidroaralashma qovushqoqligiga ta'siri**


№	Gidroaralashma konsentratsiyasi	Modifikator miqdori, g/t	Suyuq faza kinematik qovushqoqligi $\nu$ , $10^{-6}, \text{Pa} \cdot \text{s}$	Suyuq faza dinamik qovushqoqligi, $\mu_0$ , $10^{-3}, \text{Pa} \cdot \text{s}$	Gidroaralashma dinamik qovushqoqligi, $\mu$ , $\text{Pa} \cdot \text{s}$
1	0,25	0	1,396	1,6054	0,0193
2		50	1,392	1,6008	0,0192
3		60	1,385	1,5928	0,0191
4		70	1,345	1,5471	0,0186
5		80	1,262	1,4513	0,0174
6		90	1,261	1,4502	0,0174

Olingan natijalarni tahlil qilib bizga iqtisodiy va ekspluatasion jihatdan samarali nisbatni tanlash talab etildi. Shu sababli tanlash jarayonida olingan qovushqoqlik qiymatlarining gidravlik parametrlarga ta'siri kuzatildi va taqqoslandi, qovushqoqlikka ta'siri bo'yicha modifikatsiyalash davomida modifikatorning eng maqbul nisbati sifatida 80 g/t tanlandi, (4-rasm).



**4-rasm. Modifikatorning gidroaralashma qovushqoqligiga ta'siri**

Oqim davomida gidroaralashma tarkibidagi dispers sistemalar konsentratsiyasi 20% dan 28% gacha o'zgarib turadi, shu sababli konsentratsiyaning shu oralig'ida modifikatsiyalash natijasida qovushqoqlik qiymatlarining o'zgarishi va bog'liqlik grafisini 5-rasmdan ko'rishimiz mumkin.



**5-rasm. Gidroaralashmaning o'zgaruvchan konsentratsiyasida qovushqoqlikning modifikator ta'sirida o'zgarishi**

Modifikatsiyalash jarayonida dispers sistemali gidroaralashma qovushqoqligining kamayishi oqim jarayonida uning tezligiga, turbulentligiga ta'siri tajribalarda modifikatorning turli nisbatlarida o'rganildi (5-jadval).

### 5-jadval

#### Gidroaralashma qovushqoqligining turbulენტlikka va oqim tezligiga ta'siri

№	Gidroaralashma dinamik qovushqoqligi, $\mu$ , Pa*s	Oqim tezligi, v m/s	Quvur diametri, D, m	Zichlik, kg/m <sup>3</sup>	Reynolds soni, Re	Modifikator miqdori, g/t
1	0,0193	1,386	0,72	1280	66310	-
2	0,01921	1,389	0,72	1280	66645	50
3	0,01911	1,395	0,72	1280	67271	60
4	0,01856	1,412	0,72	1280	70100	70
5	0,01741	1,421	0,72	1280	75203	80
6	0,0174	1,42	0,72	1280	75210	90

Modifikatorning 80 g/t va 90g/t nisbatlarida oqim tezligi va turbulენტlik darajasi deyarli o'zaro teng va boshqa nisbatlardan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Gidroaralashmaning gidrotransport jarayonida quvur devorlariga ishqalanib oqishi natijasidagi reologik parametrlarga ta'sirini kamaytirish va oqim samaradorligini oshirish uchun gidrotransport tizimlaridagi gidroaralashmaga kompozitsion modifikatorni 50 g/t dan 90 g/t gacha nisbatda qo'shib tajribalar o'tkazildi, natijalarni 6-jadvalda ko'rish mumkin.


### 6-jadval

#### Kompozitsion modifikatorning gidroaralashma xarakati va reologiyasiga ta'siri

№	Gidroaralashmaning oqim jarayonidagi reologik parametrlari	Tajriba sinovlari, modifikatorsiz va modifikator qo'shilgan holatlarda, g/t.					
		1	2	3	4	5	6
		-	50	60	70	80	90
1	Gidroaralashmaning dinamik qovushqoqligi – $\mu$ Pa*s	0,0193	0,0192	0,0191	0,0186	0,0174	0,0174
2	Ishqalanishning dastlabki kuchlanishi - $\tau_0$ , Pa	3,78	3,78	3,78	3,78	3,78	3,78
3	Ishqalanish tezligi (tezlik gradient)- $\dot{\gamma}$ c <sup>-1</sup>	99,44	100,08	101,38	105,14	107,16	106,93
4	Quvur devoridagi kuchlanish – $\tau$ Pa	5,698	5,70	5,72	5,73	5,648	5,643
5	Ishqalanishning nisbiy kuchlanishi - $\sigma$	0,664	0,663	0,661	0,660	0,6696	0,6703
6	Gidravlik qarshilik koeffitsiyenti - $\lambda_\sigma$	0,0086	0,0085	0,0084	0,008	0,0077	0,0077
7	Hisobiy napor yo'qotilishi - $h_g$ m/km	1,17	1,165	1,158	1,133	1,102	1,103
8	Umumiy napor yo'qotilishi - $h_{um}$ m	11,57	11,54	11,47	11,22	10,91	10,92




Gidroaralashma oqimi davomida o‘zining qovushqoqlik, cho‘kuvchanlik kabi hususiyatlari orqali quvur devoriga yuqori kuchlanish beradi. Kompozitsion modifikator yordamida dispers sistemalarni modifikatsiyalash usulida ishqalanish tezligini oshirish va qovushqoqlikni kamaytirish orqali quvur devoriga ta’sir etayotgan kuchlanish kamaytirildi (6, 7 – rasm).




**6 – rasm. Gidroaralashma qovushqoqligining ishqalanish tezligi (tezlik gradienti) ga ta’siri**

Ishqalanishning nisbiy kuchlanishi dastlabki va devordagi kuchlanishlar nisbati orqali, bosim yo‘qotilishi, energiya sarfi muammolarining asosiy parametri gidravlik qarshilik koeffitsiyenti  $\lambda_{\sigma}$  aniqlandi.




**7 – rasm. Ishqalanish tezligi (tezlik gradient) ning quvur devoriga ta’siri**

Modifikatsiyalash natijasida  $\lambda_{\sigma}$  qiymati kamaytirishga erishildi, bu orqali hisobiy va umumiy bosim yo‘qotilishi kamaytirildi (8 – rasm). Gidroralashmaning haqiqiy gidravlik parametrlarini modifikatsiyalashdan keyingi parametrlar bilan taqqoslashdan ko‘rinib turibdiki gidroaralashma harakati davomida taklif etilayotgan metod asosida qattiq dispers sistemalarning quvur devoriga ishqalanish tezligi 7 % ga oshirilib, quvur devoridagi kuchlanish 1%, gidravlik qarshilik koeffitsiyenti 10%, bosim yo‘qotilishini 6,7 % miqdorda kamaytirish mumkinligi aniqlandi.



**8 – rasm. Modifikator ta’sirida quvur devoridagi kuchlanish va gidravlik qarshilik koeffitsiyentining o’zgarishi**


Boyitish qoldig‘ini tashish jarayonida dispers sistemalar ta’sirida quvurlar tizimining devorlari yediriladi, quvurlarning yedirilishga bo‘lgan turg‘unligini oshirish, foydalanish muddatini uzaytirish uchun gidroaralashma tarkibidagi dispers sistemalarni modifikatsiyalashning ta’sir ko‘rsatkichlari aniqlandi.



Bunda:  $H$  – bosim;  $N$  – quvvat;  $\eta$  – samaradorlik;  $Q$  – oqim sarfi;  $H_g$  – ko‘tarilishning geometrik balandligi;  $\Delta H$  – nasosning yedirilishi sababli bosimning pasayishi;  $H_{mak}$  – nasosning uzatishi to‘xtaydigan maksimal bosim;  $\Delta H_{mak}$  – nasosning uzatishi yedirilish tufayli to‘xtaydigan maksimal bosimning pasayishi;  $\Delta Q_{yed}$  – nasosning yedirilish vaqtida oqimning kamayishi;  $\Delta N_{yed}$  – nasosning yedirilish paytida quvvat yo‘qolishi.

**9 – rasm. Tadqiqot obyektida foydalanilayotgan nasosning modifikatsiyalashdan oldingi va keyingi xarakteristikalarini.**

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quvurning massasi va qalinligi bo'yicha foydalanish muddati mos ravishda 29% va 31% ga oshdi. Quvurning umumiy o'rtacha foydalanish samaradorligi esa 30% ga oshdi. Tadqiqot obyektida nasoslar orqali uzatilayotgan dispers sistemalar ta'sirida



1-uch bosqichli maydalagich; 2-klassifikator; 3- ikki bosqichli yanchish; 4-asosiy flotator; 4.1-tozalovchi flotator; 4.2-nazorat flotatori 5-reagent baki; 6- gidrosiklon; 7-quyuqlashtirgich; 8-filtr; 9- mis konsentrat; 10-gidroaralashmani uzatuvchi kamera; 11-modifikatorni tayyorlash kamerasi; 12-gidroaralashma yig'uvchi kamera; 13-nasos stansiyasi; 14-qoldiqlarni saqlash maydoni

### 10 – rasm. Tadqiqot obyektida boyitish qoldiqlarini modifikatsiyalash texnologik sxemasi

ularning foydali quvvati  $N_f$  va foydali ish koeffitsiyenti (FIK)  $\eta$ , o'z samaradorligini yo'qotadi, shu sababli nasoslarning kompozit modifikator yordamida gidroaralashma tarkibidagi dispers sistemani modifikatsiyalashdan keyingi parametrlarini o'zgarishi o'rganildi. Olingan natijalar asosida modifikatsiya jarayonidan keyin nasoslarning foydali quvvati 7,96 % va foydalanish samaradorligi 11% ga oshganligi aniqlandi. Gidroaralashma tarkibidagi qattiq dispers sistemalarni modifikatsiyalashdan keyingi olingan qiymatlar va nasosning ishchi ko'rsatkichlarni taqqoslash orqali erishilgan natijalarni 9 – rasmda ko'rish mumkin.

Tadqiqot obyektida rudalarni qayta ishlash va boyitish jarayonlarini tahlil qilish asosida boyitish qoldiqlarini modifikatsiyalash texnologik sxemasi ishlab chiqildi (10-rasm). Taklif etilayotgan gidroaralashma tarkibidagi dispers sistemalarni modifikatsiyalagan holda gidrotransport qilish texnologiyasida modifikatorni tayyorlash va gidroaralashma oqimiga qo'shish jarayoni ishlab chiqildi. Yaratigan

texnologiyani rudalarni qayta ishlash va boyitish jarayonida qo‘llash natijasida yiliga 809,34 mln iqtisodiy samara ko‘zda tutilgan.

## **XULOSALAR**

1. Mahalliy xomashyolar asosida dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransport jarayonida gidroaralashma qovushqoqligini, oqim harakatini, reologik xossalarni yaxshilovchi va gidrotransport tizimlarining yedirilishini kamaytiruvchi organik birikmalar asosidagi kompozitsion modifikatorlar tavsiya etildi.

2. Yaratilgan kompozitsion modifikatorlarning fizik-kimyoviy, texnologik va reologik xossalari o‘rganilib ularning dispers sistemalarning naporli quvurlardagi gidrotransport jarayonidagi optimal miqdori tavsiya etildi.

3. Yaratilgan kompozitsion modifikatorning tog‘-kon sanoati boyitish qoldig‘i dispers sistemani adsorbsion, fizik-kimyoviy, reologik xossalariga va jihozlarning yemirilishiga, korroziyasiga ta’siri ilmiy asoslandi.

4. Modifikatsiyalangan dispers sistema gidroaralashmalari qovushqoqligining oqim tashuvchanligiga va quvur devorlariga ta’sirini aniqlash usullari va uni bingam suyuqligi ekanligi ko‘rsatildi.

5. Dispers sistemali gidroaralashmaning kompozitsion modifikator bilan modifikatsiyalash natijasida sistemaning qovushqoqligi 9,84%, gidrotransport bosimi 5,7%, cho‘kuvchanligi 22,6% ga kamayishi, harakatlanish tezligi va unumdorligi 40% oshishi, jihozlar yedirilishi 30%, energiya sarfi 31,86% kamayishi tavsiya etildi.

6. Mahalliy ikkilamchi xomashyolardan organik birikmalar asosidagi modifikatorlar olish, dispers sistemali gidroaralashmalarni modifikatsiyalash va uzatish texnologiyasi tavsiya etildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
DSc.15/27.02.2020.Т.73.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ЧОРШАНБИЕВ УМАР РАВШАН УГЛИ**

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГИДРОТРАНСПОРТА ДИСПЕРСНЫХ  
СИСТЕМ В НАПОРНЫХ ТРУБОПРОВОДАХ НА ОСНОВЕ  
МОДИФИКАЦИИ ПОЛИМЕРНЫМИ КОМПОЗИЦИЯМИ**

**05.09.07 – Гидравлика и инженерная гидрология  
02.00.07 – Химия и технология композиционных, лако-красочных и резиновых  
материалов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2024.2.PhD/Т4536

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) и информационно-образовательном портале «Ziyounet» ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Ибадуллаев Ахмаджон Собирович**  
доктор технических наук, профессор

**Бабаев Аскар Рўзибадалович**  
PhD, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Жонқобиллов Улугмурод Умбарович**  
доктор технических наук, профессор

**Адилов Равшанбек Эркинович**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ферганский политехнический институт**

Защита диссертации состоится 15 августа 2024 года в 09<sup>00</sup> часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета DSc.15/27.02.2020.T.73.02 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; e-mail: [rektorat@tstu.uz](mailto:rektorat@tstu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер - 176). (Адрес: 100167, Ташкент ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66).

Автореферат диссертации разослан «29» 07 2024 года.  
(протокол реестра № 5 от «29» 07 2024 года).



**А.В.Умаров**

Председатель разового научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.т.н., профессор

**Э.У.Тешабаева**

Заместитель секретаря разового научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.т.н., профессор

**Н.Қ.Турсунов**

Председатель разового научного семинара  
при разовом научном совете  
по присуждению ученых степеней,  
д.т.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире горнодобывающей промышленности гидротранспортные системы являются важным инструментом транспортировки отходов, образующихся при обогащении руд в состоянии гидросмеси дисперсной системы, а основными проблемами являются подача частей труб и насосов, высокие энергозатраты в процесс гидротранспорта. Поэтому актуальным является вопрос обеспечения непрерывности процесса обогащения, повышения гидравлической эффективности труб и насосов в процессе гидротранспорта. Учитывая это, важным является совершенствование гидротранспорта напорных труб на основе методов, обеспечивающих снижение вязкости потока, улучшение физико-химико-реологических свойств фаз в системе, снижение сопротивления дисперсной системы и трубопроводов при сохранении технологического процесса.

В мире, строительной и горнодобывающей промышленности ведутся исследования, направленные на улучшение реологических свойств течения гидросмесей в низко- и высококонцентрированных дисперсных системах, снижение гидравлического сопротивления, повышение производительности труб и деталей насосов, снижение энергозатрат, повышение проницаемости труб. В этом направлении уделяется внимание разработке новых энергосберегающих методов и технологий, направленных на совершенствование гидротранспорта напорных трубопроводов, обеспечение непрерывности процессов передачи потока, методов расчета конструктивных параметров гидравлических элементов и устройств, добавления полимерных композиций и поверхностно-активных веществ в поток гетерогенных дисперсных систем с вязкостью и шероховатостью.

В нашей республике, особенно на фабриках по переработке и обогащению руд, отходы принудительно вывозились в аэропорт гидротранспортной системой. Гидротранспортная система состоит из металлических труб и насосного оборудования, что требует больших эксплуатационных и энергетических затрат. Были приняты комплексные меры по повышению эффективности транспортировки, снижению эксплуатационных и энергетических затрат гидротранспортных систем. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи «...повышение энергоэффективности экономики на 20%...снижение потерь в отраслях промышленности и повышение эффективности использования ресурсов...снижение количества вредных газов, выбрасываемых в атмосферу, на 20%». В связи с этим актуально проведение научно-исследовательских работ по созданию композиций на основе вторичных органических соединений, повышающих эффективность гидротранспорта дисперсных систем в герметизированных трубах, снижающих воздействие на окружающую среду, повышающих устойчивость оборудования к коррозии. и уничтожения, и разрабатывать технологии модификации дисперсных систем с их помощью.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана, направленной на 2022-2026 годы», № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах», УП № 4124 от 17 января 2019 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию предприятий горно-металлургической отрасли», № УП-4891 от 6 апреля 2017 года «О критическом анализе объёма и состава товаров (работ, услуг), а также об углублении импортозамещающего производства», а также задач, предусмотренных в других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Сельское хозяйство, биотехнологии, экология и охрана окружающей среды» и VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

**Степень изученности проблемы.** Научные исследования по усовершенствованию гидротранспорта дисперсных систем в напорных трубах занимались такие видные учёные, как Н.А. Силин, М.А. Дементьев, В.Н. Покровская, А.Е. Смолдырев, А.Г. Джваршейшвили, Р. Дюран, Д.Ф. Ричардсон, С.А. Шук, В. Пажонка, Е. Сobot, П. Слаттер, В.А. Зверев, Ю.Г. Абросимов, Хоанг Зань Бинь, А.Х. Мирзажанзада, Н.М. Лебедев, К. Селлин, И.Л. Повх, Нья Тьонг Линь, М.И. Валиев, J.W. Hoyt, M.P. Tulin, И.И. Ерошкина, Ф.И. Франкль, Г.И. Баренблатт, В.М. Маккавеев, М.М. Гареев, И.И. Леви, X. Рауз, Ю.А. Буевич, А.Н. Крайко, С. Соу, Г. Уоилис, А. Фортъе, Д.Ф. Файзуллаев, Х.А. Рахматулин, К.Ш. Латипов, С.И. Криль, А.А. Шакиров, А.М. Арифжанов, И. Хужаев, С.Худайкулов, И.Э. Махмудов, Х.Илхомов, А.И. Умаров, С.С. Негматов, А.Г. Джалилов, Т.А. Атакузиев, А.С. Ибадуллаев, Х.Э. Юнусов, Э.У. Тешабаева, А.Р. Бабаев и другие.

Ими были разработаны и внедрены в практику работ строительной и горнодобывающей промышленности методы гидротранспортировки дисперсных систем по напорным трубам, их физико-химические свойства, их концентрация, машины и аппараты, а также методы, увеличивающие производительность подобных систем и поддерживающие баланс частиц в них.

В то же время, в настоящее время в горно-добывающей и строительной отраслях осуществляются научно-исследовательские работы, направленные на усовершенствование гидротранспорта в напорных трубах с учётом составных частей дисперсных систем, в частности создание полимерных композиций, модифицирующих дисперсные системы с учётом их концентрации, вязкости, физико-химико-реологических свойств, плавучести и влияния на окружающую среду и разработка методов модификации дисперсных систем.

**Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательскими планами высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация.** Диссертационное исследование выполнено в рамках



